



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI.

A.Ziyayev – BT kafedراسи dotsenti
M.Islomova-05/24 talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik usullar va metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. O'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish orqali ularning mustaqil fikrlash, savol berish, izlanish va amaliy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, maqolada interaktiv metodlar, rag'batlantiruvchi texnikalar va motivatsion yondashuvlar asosida o'quvchi faolligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'quvchi faolliги, interaktiv metodlar, motivatsiya, mustaqil o'rganish, dars sifati.

Boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchining bilimга bo'lgan munosabati, ta'lim olishga qiziqishi va faolliги shakllanadigan asosiy bosqichdir. Dars jarayonida o'quvchining faolliги oshsa, u mavzuni chuqurroq tushunadi, mustaqil fikrlashni o'rganadi va o'z fikrini erkin ifoda eta oladi. Ammo bu faollik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi — o'qituvchining harakatlari, yondashuvi va qo'llagan usullariga bevosita bog'liq.

Bugungi zamonaviy ta'lim talablariga ko'ra, o'quvchi – passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, tadqiqotchi va muammolar yechuvchiga aylanishi kerak. Shu sababli, boshlang'ich sinfda darsni faollik ustuvorligida tashkil qilish o'ta muhim.

1. O'quvchi faolligining pedagogik-psixologik asoslarini quyidagilarda ko'rish mumkin: O'quvchi faolliги – bu uning bilim olishga ongli qiziqishi, o'quv faoliyatida faol ishtirok etishi, savol berishi, bahslashishi, fikr bildirishidir. Faollik quyidagilarga asoslanadi:

- ichki motivatsiya – o'quvchining qiziqishi, ishtiyoqi, muvaffaqiyatga intilishi;

- tashqi motivatsiya – o'qituvchi bahosi, rag'bat, oila va jamiyat ta'siri;

- yashash va ijtimoiy tajriba – o'quvchining kundalik hayotdagi kuzatuvlari va muhitga bog'liqligi.[1]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faol bo'lishi uchun dars jarayoni ularning yoshiga mos, qiziqarli, rang-barang va interaktiv bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni faol darsga jalb etish uchun quyidagi usullar ayniqsa samarali hisoblanadi:

- a) "Savol-javob" metodlari (Sokratik usul)

O'quvchiga savol berish, unga o'z fikrini asoslashni o'rgatish orqali u faol fikrlashga undaladi. Oddiy "Ha/Yo'q" savollari emas, balki ochiq savollar tanlanadi: Masalan: "Nega sen bu fikrga kelding?", "Agar boshqacha bo'lsa-chi?", "Seningcha, bu holatda nima qilish kerak?"

- b) "Blits-so'rov" va "Fikr bo'roni" usullari

O‘quvchilardan tezkor fikrlar olish orqali ularni o‘ylashga, o‘z fikrini erkin aytishga undash mumkin. Bu usullar dars boshida yoki yangi mavzuga kirish qismida ayniqsa foydalidir.

c) Rolli o‘yinlar

Rolli o‘yinlar (masalan, do‘konchi-mijoz, shifokor-bemor) orqali o‘quvchilar ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda harakat qiladi. Bu ularning nutqiy faolligini oshiradi.

d) Interaktiv guruhli ishlar

Guruhda ishlash orqali o‘quvchi boshqalarni eshitadi, o‘z fikrini bildiradi va mas‘uliyatni his qiladi. Guruhdagi rollar (rahbar, yozuvchi, taqdimotchi) aniq belgilanadi.

e) “Kichik tadqiqot topshiriqlari”

Masalan: “Nima uchun yomg‘ir yog‘adi?”, “Quyosh nurlari nima beradi?” kabi savollarga tayyorlanish o‘quvchilarni izlanishga majbur qiladi. Bu mustaqil o‘rganishni shakllantiradi.

f) AKTdan foydalanish (video, test, prezentatsiyalar)

Vizual materiallar orqali diqqatni jalb qilish va mavzuga qiziqishni kuchaytirish mumkin. Interaktiv doskalar va onlayn o‘yinli testlar orqali o‘quvchilar faol qatnashadi.[1]

3. O‘qituvchining roli va darsdagi faollik muhitini yaratish

O‘quvchi faolligini oshirishda o‘qituvchining quyidagi xatti-harakatlari muhim:

O‘quvchini eshitish va e‘tiborga olish;

Har bir fikrni qadrlash;

Xatoni jazolamaslik, balki o‘rganish imkoniyati sifatida ko‘rsatish;

Doimiy savol-javob qilish;

Faol qatnashgan o‘quvchilarni og‘zaki yoki ko‘rinadigan tarzda rag‘batlantirish. Shuningdek, sinfda ochiqlik, ishonch, erkin fikr almashish muhiti yaratilsa, o‘quvchilar faol ishtirok etishga intiladi.

Faollikni rag‘batlantirish texnikalari

O‘quvchilarning darsdagi ishtirokini oshirish uchun quyidagi texnikalar juda foydali: “Yulduzcha” usuli Har bir faol qatnashgan o‘quvchiga yulduzcha beriladi, haftalik g‘oliblar aniqlanadi.

“Men tanlayman...” O‘qituvchi savolga javob berishni xohlagan o‘quvchini emas, o‘quvchilar o‘zaro tanlaydi.

“Savol devori” Sinfda devoriy stend tashkil etiladi, o‘quvchilar o‘z savollarini yopishtirib boradi.

“Ikki daqiqa meni eshit” Har bir o‘quvchi darsda bir daqiqa davomida o‘z fikrini bildirish imkoniga ega.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchi faolligini oshirish – ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlovchi muhim omildir. Faol o‘quvchi — darsda qatnashadigan, fikr bildiradigan, izlanadigan va o‘rganishga intiladigan shaxsdir. O‘qituvchi esa bunday o‘quvchini shakllantirish uchun har bir darsni qiziqarli, interaktiv va o‘quvchini jalb etuvchi tarzda tashkil qilishi lozim.

Zamonaviy metodlar, rag‘batlantiruvchi texnikalar va faol muloqot — boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni darsga faol jalb qilishning asosiy vositalaridir. O‘qituvchi bu usullarni ongli, rejalashtirilgan va izchil tarzda qo‘llasa, har bir o‘quvchi faol va ishtirokchi bo‘lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.ziyayev, adham nisolmuhammатович. "правила использования интерактивных методов обучения." *conferencea* (2023): 143-148.

2.ziyayev, adham nisolmuhammатович. "педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся." *e conference zone*. 2023.

3.ziyayev, a. N. "the main areas of activity of the class leader in the education of the necessary skills for an independent life in students." *galaxy international interdisciplinary research journal* 10.12 (2022): 953-956.

4.ziyayev, a. N. "some issues of the formation of skills of a healthy lifestyle in students in the process of labor